

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

ISLOMOV ALISHER BAXTIYOR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI SOHASIDA AUTSORSING
XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li

О'zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida outsorsing xizmatlarini
takomillashtirish masalalari..... 3

Исломов Алишер Бахтиёр угли

Вопросы совершенствования аутсорсинговых услуг в сфере
бухгалтерского учета в Узбекистане..... 27

Islomov Alisher Baxtiyor o'gli

Issues of improving outsourcing services in the field of accounting in
Uzbekistan..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

ISLOMOV ALISHER BAXTIYOR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI SOHASIDA AUTSORSING
XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.1.PhD/Iqt2796 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergasheva Shaxlo Turgunovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolbekov Rasul Olimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yuldasheva Inoyat Zakiryayevna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 Ilmiy kengashning 2024-yil «15» 02 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1398 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871)-239-43-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «30» 01 kuni tarqatildi.

(2024-yil «30» 01 dagi 6 - raqamli reestr bayonnomasi).



M.P.Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V.Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K.Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlar hamda yirik kompaniyalar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi raqobatning tobora global tavsif kasb etib borishi yetakchi tarmoq va sohalardagi ixtisoslashuv jarayonlarini kuchaytirmoqda. Jumladan, Yevropa va AQSHda buxgalteriya hisobi outsorsing bozorining rivojlanish darajasi kompaniyalarga o‘zlarining asosiy bizneslarini xavfsiz amalga oshirish, moliyaviy hisobotlar va boshqa buxgalteriya segmentlarini mutaxassislariga taqdim etish imkonini bermoqda. “2022-yil holatiga Yevropada kichik va o‘rta biznes subyektlarining 86 foizi, AQSHda 92 foizi, Rossiyada esa 20 foizgacha qismi outsorsing xizmatlaridan foydalanadi. Ular birinchi navbatda ish haqi va soliqlarni hisobga olish kabi funksiyalarni outsorsing qiladilar. Shuni ta’kidlash kerakki, mijoz korxonaga uchun buxgalteriya outsorsing xizmatlari 300-400 AQSH dollari, shtatdagi malakali buxgalterga esa, 1000-2000 AQSH dollari hajmida mablag‘ sarflash zarurligini ko‘rsatmoqda”¹. Mazkur holat jahon miqyosida buxgalteriya hisobi sohasida outsorsing xizmatlarini takomillashtirish masalalarining ahamiyati yuqori ekanligini namoyon etadi.

Jahon miqyosida global raqobatning keskinlashuvi hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga ehtiyojning kuchayib borishi sharoitida buxgalteriya hisobi sohasida outsorsing xizmatlarini tashkil etishni takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Outsorsing kompaniyalari buxgalterlari mobillik darajasini oshirish, outsorsing kompaniyalari ish faoliyatini tartibga soluvchi uslubiy materiallarni ishlab chiqish, buxgalteriya hisobi outsorsingda zamonaviy shakl va usullarni joriy etish, outsorsing xizmat turlarini ko‘rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, mazkur jarayonlarda qo‘llaniladigan ishchi hujjatlarni namunaviy shakllarini takomillashtirish, buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko‘rsatishning ichki standartlarini ishlab chiqish kabilar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga asoslangan barqaror taraqqiyotni ta’minlashning hozirgi bosqichida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, xususan, buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro hamda milliy standartlarga muvofiq amalga oshirishni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi “Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash” nomli 2-bo‘limining 45-bandida “2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish” maqsadi, shuningdek 59-bandida “Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish” bo‘yicha vazifaning birinchi bandida “hududlarda xizmatlar ko‘rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish” vazifalari belgilab berilgan². Mazkur vazifalar ijrosini samarali ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida korxonalarining iqtisodiy hayoti jarayonlari va hodisalarini tezkor ro‘yxatga olish, baholash, shuningdek ishonchli va shaffof hisobot tayyorlash uchun ularni qayta ishlash, buxgalteriya hisobi va nazorat tizimida yuzaga kelgan muammolar bo‘yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqish, masofaviy outsorsing asosida buxgalteriya

¹ <http://referent-kazan.ru/questions-id-42.html>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. – www.lex.uz

hisobini tashkil etish va yuritish borasida keng qamrovli nazariy va uslubiy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-fevraldagi 131-son “Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari huzuridagi Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlari tomonidan bepul konsalting xizmatlari ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2018-yil 17-avgustdagi 670-son “Dasturiy mahsulotlar va axborot mahsulotlaridan foydalanish huquqini amalga oshirish hamda rasmiylashtirishning bojxona rasmiylashtiruvi (deklaratsiyalash) va buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 22-dekabrda 2169-7-son “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”, 2020-yil 20-avgustdagi 1297-5-son “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”, 2020-yil 29-iyuldagi “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyruqlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Buxgalteriya sohasida autsorsing xizmatlarini shakllanishi va rivojlanishi masalalari Yu.Kamyabi, S.Devi, E.L.Prater, Dj.Djayabalan, M.Raman, M.Dorasami, N.K.S.Ching, P.Everaert, G.Sarens, Dj.Rommel, R.Maela, A.Aman, N.Xamza, R.Amiruddin, Sofiya, Auzayr, R.Sneydere, I.Bumane, E.Lashenko, A.Bagenska, Dj.A.Smit, Dj.Morris, M.Ezzamel kabi qator chet el olimlari tomonidan o‘rganilgan³. Shuningdek, MDH mamlakatlaridan B.A.Anikin, A.P.Agarkov, A.D.Vannes, V.V.Varlamova, A.V.Grishenko, A.L.Zubanov, D.A.Yelshanskaya, T.M.Yermakova, E.V.Orlova, V.V.Pankov, S.A.Naumova,

³Kamyabi Y., Devi S. (2011). An Empirical Investigation of Accounting Outsourcing in Iranian SMEs: Transaction Cost Economics and Resource-Based Views. *International Journal of Business and Management*, 6(3), 81-94; Jayabalan J., Raman M., Dorasamy M., Ching N.K.C. Outsourcing of Accounting Functions amongst SME Companies in Malaysia: An Exploratory Study. *Accountancy Business and the Public Interest*. (2009). 8(2), p 96-114, <http://visar.csustan.edu/aaba/Dorasamy2009.pdf>; Everaert P., Sarens G., Rommel J. Using Transaction Cost Economics to explain outsourcing of accounting. *Small Bus Econ*. (2010). 35(1), p 93–112; Maelah R., Aman A., Hamzah N., Amiruddin R., Sofiah Auzair., Возврат бухгалтерского аутсорсинга: процесс и проблемы//Стратегический аутсорсинг: Международный журнал, (2010) Vol. 3 № 3, стр. 226–245; Sofiah., Auzair, Aman A., Maelah P., Amiruddin P. Хамза Н. Управление контроля в области бухгалтерского учета аутсорсинговых услуг//Бизнес - стратегии series. (2013) Vol. 14 № 2/3, стр. 43-49; Снейдере Р., Бумане И., Лашенко Е. Бухгалтерские услуги в Латвии: проблемы и возможные решения. *Экономика и менеджмент. Бухгалтерский учет, аудит, налогообложение и управление*, Vol. 18 № 1 (2013); Bagieńska A. The Demand for Professional Knowledge as a Key Factor of the Development of Outsourcing of Financial and Accounting Services in Poland. *Business, Management and Education*. Vilnius Gediminas Technical University. 14/2016. p 19-33. Devi S. Accounting Outsourcing and Firm Performance in Iranian SMEs. *International Journal of Economics and Finance*. Vol. 3, No. 4; September 2011. p 181-192; Smith J.A., Morris J., Ezzamel M. Organisational change, outsourcing and the impact on management accounting. *The British Accounting Review*. Volume 37, Issue 4, December 2005, Pages 415-441.

A.J.Sultangujiyeva kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq etganlar⁴.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar buxgalteriya hisobi amaliyotining nazariyasi va uslubiy qoidalarini tadqiq etishda ulkan hissalarini qo‘shgan bo‘lib, S.A.Djumanov, R.D.Dusmuratov, A.K.Ibragimov, A.A.Karimov, S.N.Tashnazarov, B.A.Xasanov, Sh.T.Ergasheva, N.B.Absalomova, R.O.Xolbekov, U.A.Shirinov, Z.N.Qurbanov va boshqalar shular jumlasidan hisoblanadi⁵. Ushbu mualliflarning asarlari bozor iqtisodiyotining istiqbolli instituti sifatida buxgalteriya hisobi outsorsingini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar uchun asosdir.

Korxonalar va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo‘shadigan, axborot texnologiyalarini rivojlantirishning eng muhim instituti sifatida masofaviy outsorsing asosida buxgalteriya hisobini zamonaviy tashkil etish masalalari yetarli darajada rivojlanmaganligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalarini oldindan belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ilmiy va metodologik asoslari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi sohasida outsorsing xizmatlarini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobini outsorsing qilishning xalqaro amaliyotini o‘rganish, ularning xususiyatlarini yoritib berish;

⁴ Аникин Б.А., Агарков А.П., Рудая И.Л. Аутсорсинг и аутстаффинг: Монография. – М.: Хлебпродинформ. 2009.; Ваннес А.Дж. Развитие методологии и организации учета затрат на аутсорсинг в строительных организациях республики Ирак. Автореф. дисс. на соис. уч. степ. к.э.н. - Санкт-Петербург: 2019, с. 20; Варламова В.В. Структурированный рабочий план счетов аутсорсинговой деятельности//Управленческий учет. 2008. №8. С.55-61.; Грищенко А.В. Бухгалтерский аутсорсинг как способ оптимизации бизнес-процессов // Справочник экономиста. 2008. №7. С. 118-125.; Елшанская Д.А. Бухгалтерский учет затрат на аутсорсинг в структурных подразделениях железнодорожного транспорта. Автореф. дисс. на соис. уч. степ. к.э.н. – Самара. 2013, с. 19; Ермакова Т.М. Аутсорсинг в бухгалтерском учете//Бухгалтерский учет. 2007. №7. С.55-57.; Зубанов А.Л. Модели и инструменты поддержки аутсорсинговых услуг в сфере бухгалтерского учета. Автореф. дисс. на соис. уч. степ. к.э.н. – Москва. 2013, с. 27; Орлова Е.В. Передача бухгалтерии на аутсорсинг: документальное оформление и налогообложение // Налоговый вестник. 2008. №11. С. 114-126.; Панков В.В., Наумова С.А. Аутсорсинг в бухгалтерском учете// Аудит и финансовый анализ. 2009. №1. С. 1-21.; Султангужиева А.Ж. Особенности формирования и развития дистанционного аутсорсинга в сфере оказания услуг бухгалтерского учета // Предпринимательство. 2014. №6. С. 134-138.

⁵ Djumanov S.A. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.. avtoref. – Toshkent, 2019. – B. 26; Dusmuratov R.D., Mengliqulov B.Yu. Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 392 b.; Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditori va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish, i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.. – Toshkent, 2001. –252 b.; Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – B. 153.; Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Navro‘z, 2016 y.-296 b.; Xasanov B.A., Djumanov S.A. Kichik sanoat zonalarida buxgalteriya xizmatlarini tashkil qilishda outsorsingdan foydalanish//Biznes-ekspert. 2019, Tom. 140. Выпуск 8, стр 3-6; Sh. T. Ergasheva. The Importance of The Improvement And Convergence of IAS/IFRS to the National Accounting System of Uzbekistan// International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S4, July 2019. Page 731-733; Abdusalomova.N.B Buxgalteriya hisobi T-2021; Xolbekov.R.O Boshqaruv hisobi fanidan masalalar to‘plami T-2013; Shirinov U.A., Xamidov D. Buxgalteriya sohasini rivojlantirish tendentsiyalari. "Ekonomika i sotsium" №6(109)-2 2023. – B. 492-498; Qurbanov Z.N., Akramov F.A. Asosiy vositalarni MHXS asosida yuritish//“BIZNES-EKSPERT” jurnali № 4-son, may, 2015.

buxgalteriya hisobi sohasida outsorsing xizmatlarini tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslarini ochib berish;

outsorsingning outsorsing xizmat turlarini ko'rsatishning o'ziga xos jihatlarini asoslash;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatishda qo'llaniladigan ishchi hujjatlarni namunaviy shakllarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berish;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatishning ichki standartlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatishda xorijiy tajribalarni qo'llash va uning natijalarini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti bo'lib turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlariga buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatuvchi firmalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida guruhlash, taqqoslama tahlil, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv, statistik tahlil, iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

buxgalteriya hisobi ishlarini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonida buxgalteriya outsorsing xizmatlaridan foydalanish asosida ish o'rinlarini saqlash xarajatlarini minimallashtirish, kadrlar almashinuviga bog'liqlikni bartaraf etish, yuqori malakali mutaxassislardan foydalanish, asosiy biznes jarayonlari samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish natijasida korxonalar xarajatlarini ikki baravargacha qisqartirish taklifi asoslangan;

buxgalteriya outsorsing firmasida mijoz korxonalar asosiy, yordamchi va umumishlab chiqarish, ma'muriy va boshqa maqsadlarga sarflangan xomashyo va materiallar, mehnatga haq to'lash xarajatlari analitik schyotlarini birlashtiruvchi 3300-"Xomashyo va material xarajatlar" va 3400-"Mehnatga haq to'lash xarajatlari" schyotlaridan foydalanish taklifi asoslangan;

buxgalteriya outsorsing firmasida mijoz korxonalar moliyaviy va boshqaruv hisobini integratsiyalashgan tizimi 3500-"Ijtimoiy soliq ajratmalari", 3600-"Amortizatsiya ajratmalari", 3700-"Jami xarajatlarning taqsimlanishi sintetik va tegishli analitik schyotlarini, 3800-"Boshqa umumiy xarajatlar", 3900-"Boshqa xarajatlar" schyotlarni kiritish orqali takomillashtirilgan;

buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatish jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati va natijalari to'g'risida mustaqil ishonchli xulosa olish maqsadida o'rganish taomilini namoyon etuvchi dyu dilidjens xizmatidan foydalanish orqali korxonalar moliyaviy holatiga oqilona baho berish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Buxgalter-outsorsingning axloq kodeksi va mijoz korxonalarning buxgalteriya hisobini nazorat qilish" ichki standartini joriy etish orqali buxgalteriya outsorsing faoliyatini takomillashtirish asoslangan;

buxgalteriya outsorsing firmasining biznes jarayonlari va javobgarlik markazlari bilan bog'liqligi asoslangan;

mijoz korxonada boshqaruv hisobini yuritish maqsadlarida xarajatlar markazlari bo'yicha qo'llaniladigan ishchi schyotlar tizimlashtirilgan;

buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatishda professionallikni ta'minlash asoslangan;

buxgalteriya outsorsing firmasida xarajatlarni hisoblashning zamonaviy usullaridan foydalanish xususiyatlari asoslangan;

buxgalteriya outsorsinglari tomonidan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish uslubiyoti ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uni amalga oshirishda foydalanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarining rasmiy ma'lumotlari va hisobotlaridan foydalanganligi hamda xulosa va takliflarning tegishli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyaning ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalaridan respublika buxgalteriya outsorsing firmalari va ularning mijozlari buxgalteriya hisobi faoliyatini takomillashtirish, kelajakda maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda, respublika buxgalteriya outsorsing firmalari va ularning mijozlari buxgalteriya hisobi faoliyatini takomillashtirishda va unga doir maqsadli dasturlar, chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan buxgalteriya outsorsing firmalari va ularning mijozlari buxgalteriya hisobi faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Buxgalteriya hisobi" va "Moliyaviy hisob" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Buxgalteriya hisobi sohasida outsorsing xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

buxgalteriya hisobi ishlarini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonida buxgalteriya outsorsing xizmatlaridan foydalanish asosida ish o'rinlarini saqlash xarajatlarini minimallashtirish, kadrlar almashinuviga bog'liqlikni bartaraf etish, yuqori malakali mutaxassislardan foydalanish, asosiy biznes jarayonlari samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish natijasida korxonalar xarajatlarini ikki baravargacha qisqartirish taklifi O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston auditorlar palatasi, "Turan outsorsing servis" MCHJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2023-yil 30-avgustdagi 41-sonli, O'zbekiston auditorlar palatasining 2023-yil 15-avgustdagi 30/NK-sonli, "Turan outsorsing servis" MCHJning 2023-yil 1-iyundagi 21/23-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida buxgalteriya outsorsing firmalari mijozlari faoliyati va ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish imkoni yaratilgan;

buxgalteriya outsorsing firmasida mijoz korxonalar asosiy, yordamchi va umumishlab chiqarish, ma'muriy va boshqa maqsadlarga sarflangan xomashyo va materiallar, mehnatga haq to'lash xarajatlari analitik schyotlarini birlashtiruvchi 3300-"Xomashyo va material xarajatlar" va 3400-"Mehnatga haq to'lash xarajatlari"

schyotlaridan foydalanish taklifi O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston auditorlar palatasi, “Turan outsourcing servis” MCHJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2023-yil 30-avgustdagi 41-sonli, O‘zbekiston auditorlar palatasining 2023-yil 15-avgustdagi 30/NK-sonli, “Turan outsourcing servis” MCHJning 2023-yil 1-iyundagi 21/23-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida buxgalteriya outsorsing firmalarida mijoz korxonalarining moliyaviy va boshqaruv hisoblarini yuritib borish tartiblarini soddalashtirish imkoni yaratilgan;

buxgalteriya outsorsing firmasida mijoz korxonalar moliyaviy va boshqaruv hisobini integratsiyalashgan tizimi 3500-“Ijtimoiy soliq ajratmalari”, 3600-“Amortizatsiya ajratmalari”, 3700-“Jami xarajatlarning taqsimlanishi sintetik va tegishli analitik schyotlarini, 3800-“Boshqa umumiy xarajatlar”, 3900-“Boshqa xarajatlar” schyotlarni kiritish orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston auditorlar palatasi, “Turan outsourcing servis” MCHJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2023-yil 30-avgustdagi 41-sonli, O‘zbekiston auditorlar palatasining 2023-yil 15-avgustdagi 30/NK-sonli, “Turan outsourcing servis” MCHJning 2023-yil 1-iyundagi 21/23-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko‘rsatuvchi outsorsinglar faoliyatini takomillashtirish va mijoz korxonalar faoliyatini nazorat qilish imkoni yaratilgan;

buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati va natijalari to‘g‘risida mustaqil ishonchli xulosa olish maqsadida o‘rganish taomilini namoyon etuvchi dyu dilidjens xizmatidan foydalanish orqali korxonalar moliyaviy holatiga oqilona baho berish taklifi O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston auditorlar palatasi, “Turan outsourcing servis” MCHJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2023-yil 30-avgustdagi 41-sonli, O‘zbekiston auditorlar palatasining 2023-yil 15-avgustdagi 30/NK-sonli, “Turan outsourcing servis” MCHJning 2023-yil 1-iyundagi 21/23-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonalar moliyaviy holatiga oqilona baho berish va investorlar uchun ma’lumotlar bazasini kengaytirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va asosiy vazifalari hamda obykti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aks ettirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida outsorsing xizmatlari ko‘rsatishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiyotda outsorsing xizmatlarining kengaytirish sabablari, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida outsorsing xizmatlarini tashkil etish afzalligi, kamchiligi va muammolari, buxgalteriya outsorsing asosida buxgalteriya hisobini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari ochib berilgan.

Turli adabiyot va manbalarda “Autsorsing” atamasiga turlicha ta’riflar berilgan, umuman olganda, “Autsorsing” atamasi inglizchada – “Autsorsing” so‘zidan olingan bo‘lib, boshqalarning resurslaridan foydalanish deb tarjima qilingan. Ayrim iqtisodchi olimlar outsorsingni asosiy bo‘lmagan funksiyalarni shartnoma asosida muayyan sohaga ixtisoslashgan, tegishli tajriba, bilim va texnik vositalarga ega bo‘lgan boshqa tashkilotlarga o‘tkazish sifatida ko‘radilar. Boshqalari outsorsing ingliz tilidan “outsourcing”, ya’ni “outer-source-using”, deb talqin qilib, uni tashqi manbadan yoki resursdan foydalanish hamda tashkilot tomonidan sanoat tadbirkorlik faoliyatining ma’lum turlari yoki funksiyalarini shartnoma asosida faoliyat ko‘rsatuvchi boshqa kompaniyaga o‘tkazish sifatida ta’riflaydilar.

Bizningcha, “Autsorsing - bu mijoz korxonalarining bozor talablariga moslashish jarayonlarida o‘z tuzilmalarini shakllantirish muammolarini yechish yoki tegishli xarajatlar yoki risklarni kamaytirish maqsadida ma’lum turdagi yoki kompleks xizmat turlarini professional xizmatlar ko‘rsatuvchi uchinchi shaxslarga ishonib topshirish hisoblanadi”.

Endi outsorsingning bir turi hisoblangan buxgalteriya outsorsing xizmatlariga keladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning “Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish” nomli 11-moddasida “buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga (auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari va ustavida buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish nazarda tutilgan boshqa tashkilotlar) shartnoma asosida yuklash”⁶, - deb belgilab qo‘yilgan, unga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga, ya’ni ustavida buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish nazarda tutilgan tashkilotlar tomonidan buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko‘rsatishi ta’kidlab o‘tilgan.

Bir guruh olimlar buxgalteriya hisobi outsorsingini biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun tashkilotning buxgalteriya hisobi funksiyalarini uchinchi tomon mutaxassislariga o‘tkazish. Ushbu turdagi outsorsing tashqi buxgalterni jalb qilishni anglatmaydi, u doimiy funksiyalarning o‘tishiga xosdir, tashqi mutaxassisni

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘RQ-404-son Qonuni. – T.: 2016-yil 13-aprel. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 15-son, 142-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020 y., 03/20/660/1682-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021 y., 03/21/726/1001-son

jalb qilish esa, faqat epizodik yoki bir martalik deb nomlanishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Ikkinchi guruh olimlari buxgalteriya outsorsingini buxgalteriya hisobini ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga topshirish va bu jarayon biznesni optimallashtirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish uchun zarur bo'lgan menejment va xodimlar asosiy vazifalarni bajarishga, moliyaviy risklarni kamaytirishga e'tibor qaratishlari mumkinligini e'tirof etganlar.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya outsorsingi – bu korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida amalga oshiriladigan barcha muomalalar hisobi va nazoratini uchinchi shaxslarga ishonib topshirish, ya'ni o'zlarining buxgalteriya, soliq va moliya sohalarida yetuk bilim va tajribalarga ega professional xizmatlar ko'rsatuvchi uchinchi tomon bo'lgan mutaxassislariga berish va ular zimmasiga yuklash hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadi-ki, outsorsing xizmatlaridan foydalanish mijoz korxonalar uchun ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning qulay yo'li bo'lib xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy biznes sharoitlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va motivlari ustunlik qiladi. Buxgalteriya hisobida outsorsing xizmatlarini tashkil etish orqali samaradorlikka erishish imkoniyatlari quyidagicha:

Buxgalteriya hisobida outsorsing vazifalari:

outsorsing tomonidan yuqori malakali mutaxassislarning xizmatlarini taklif etilishi imkoniyati;

soliqqa oid masalalarda risklarni kamayishi;

buxgalteriya xizmatlarini tashkil etish va yuritish xarajatlarini kamayishi;

mol yetkazib beruvchi va xaridorlar bilan iqtisodiy aloqalarga kirishishda outsorsing kompaniyalarining kafolatli turli xizmatlaridan foydalanish imkoniyati;

outsorsing kompaniyalarning to'g'ridan-to'g'ri soliqqa oid masalalarni tekshiruvlardan o'tkaza olishi imkoniyati.

Buxgalteriya outsorsing xizmati zamonaviy iqtisodiyotga xos bo'lgan tez o'zgaruvchan sharoitlarda, tobora murakkab texnologik yechimlar va ishlab chiqarish bazasiga ham, vakolatlarga ham sifat talablari ortib borayotgan sharoitlarda samaradorlikni oshirishga imkon beradi.

Buxgalteriya outsorsing xizmatlari ko'pincha quyidagilarda qo'llaniladi:

buxgalteriya xarajatlarini kamaytirish, ma'lumotlar sifatini yaxshilash, qo'shilish va sotib olish jarayonini soddalashtirish va boshqaruv tadbirlarini asosiy faoliyatga jamlashda;

buxgalteriya hisobi va moliyaviy sohalarini yuritish, javobgarlik markazlari boshqaruv hisobi va budjetlashtirishda;

qo'shimcha xodimlarni jalb qilish zaruratining oldini olish yoki xodimlar qo'nimsizligini boshqarishda.

Bugungi kunda jahonning deyarli barcha davlatlarida biznesni tashkil etish va yuritishda outsorsing xizmatlaridan foydalanmaslik natijasida bozor raqobatiga dosh bera olmasligini namoyon etmoqda, shunga ko'ra kompaniyalar outsorsingni o'z faoliyatlarining samaradorligini oshirish vositasi sifatida e'tirof etishmoqdalar.

Dissertatsiya ishining **“Buxgalteriya outsorsing xizmatlarini boshqarish amaliyoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida shtatda ishlovchi buxgalter va buxgalteriya

outsorsing xizmatlarini solishtirma tahlili hamda ularni samarali boshqarish, buxgalteriya outsorsing firmasida mijoz korxonada moliyaviy va boshqaruv hisobini integratsiyalashgan tizimda tashkil etish va mijoz korxonalariga buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatishda professionallikni ta'minlash jihatlari ochib berilgan. Korxonaning shtatlar jadvali va tuzilmasi uning ustavida belgilanadi va barcha bo'linmalarni va har bir lavozim uchun shtat birliklarining umumiy sonini, shuningdek, ularning nomini belgilaydigan maxsus hujjat bu – korxonaning ustavi va hisob siyosatidir. Har qanday korxonaning lavozimlar jadvali va xodimlarning soni, ularning umumiy ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda tasdiqlangan shtatlar jadvalida qayd etilishi kerak.

1-jadval

Shtatda ishlovchi buxgalter xodim uchun xarajatlar hajmi⁷

Xarajatlarning nomi	Oylik ajratiladigan summa (ming so'mda)
I. Ish haqiga oid xarajatlar	
Ish haqi xarajatlari	5 000
Ish haqiga nisbatan ustama xarajatlar	1 000
Ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq xarajatlari	720
Qo'shimcha ish haqi va kompensatsiya to'lovlari	500
Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash xarajatlari	180
Mehnat ta'tili, shu jumladan, ijtimoiy ta'til xarajatlari	500
Ish haqiga tenglashtirilgan xarajatlar, shu jumladan:	150
moddiy yordam	200
Mukofot	500
vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi	350
uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash uchun kompensatsiya to'lovlari	100
Jami:	9 200
II. Tashkiliy xarajatlar	
Xodimni ish joyiga olib borish va olib qaytish bo'yicha xarajatlari	150
Xodim foydalanuvchi asosiy vositalar amortizatsiyasi xarajatlari	2 000
Yo'l kira yoki yo'l kartochkalarini olish uchun xarajatlar	150
O'qish, malaka oshirish va qayta tayyorlash xarajatlari	100
Jami:	2 400
III. Ta'minot xarajatlari	
Xodim foydalanuvchi xomashyo va kanselyariya tovarlari uchun xarajatlar	100
Sut, oziq-ovqati, suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari	50
Davolanish, shu jumladan, nogiron xodimni davolash xarajatlari	100
Xodimini yashashi uchun ijara xarajatlari	1 000
Xodim farzandining maktabgacha ta'lim muassasasiga borishi xarajatlari	100
Xodim foydalanuvchi elektr energiyasi xarajatlari	50
Xodimning shaxsiy avtomobilidan foydalanganlik uchun ta'minot xarajatlari	300
Jami:	1 700
Hammasi:	13 300

Amaliyotni tadqiq etishimiz shuni ko'rsatadiki, shtatda ishlovchi buxgalterlarga sarflanadigan xarajatlarning turlari va hajmi kattaligiga qaramay ular tomonidan qator odatiy xizmatlar ko'rsatilishini kuzatish mumkin. Lekin, hozirgi kun talablaridan kelib chiqsak, shtatda ishlovchi buxgalterlar tomonidan quyidagi xizmatlarni ko'rsatmaslik hollari ham uchrab turibdi, ya'ni:

- 1) moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish va tuzish;
- 2) soliqqa oid masalalar bo'yicha maslahatlar berish;

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan

- 3) kelgusi moliyaviy va biznes rejalarni tuzish;
- 4) korxonalar biznes risklarini baholash;
- 5) boshqaruv tahlillarini o'tkazish va biznesni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha maslahatlar berish;
- 6) xodimning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (key performance indicators, KPI) bo'yicha ma'lumotlar yig'ish va boshqalar.

2-jadval


O'zbekistonda outsorsing (buxgalteriya hisobi, soliq va audit) xizmatlarini shakllanishi tahlili⁸

Xo'jalik yurituvchi subyektlar	Umumiy soni (yillar kesimida kishi)					Xodimlari soni (yillar kesimida kishi)				
	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Umumiy soni	323517	398133	475197	528929	592371	4445644	4719300	4848868	4957893	5112154
jumladan:										
aksiyadorlik jamiyatlari	641	635	649	640	671	373905	367581	358514	339588	371776
Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar	170158	219370	272890	316903	367149	984682	1280691	414393	1077605	1647730
Buxgalteriya outsorsing firmalari	923	1093	1297	1524	1831	3826	3956	4025	4550	5255
Soliq maslahatchisi konsalting firmalari	95	109	102	120	107	315	528	499	525	541
Auditorlik firmalari	127	140	154	178	211	1001	1004	1109	1419	1555

Xo'jalik yurituvchi subyektlar	Umumiy daromadlari (mln. so'mda)					Umumiy xarajatlari (mln. so'mda)				
	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Buxgalteriya outsorsing firmalari	74444,0	97185,0	107482,7	457805,4	346853,1	36059,9	67059,1	72744,2	398194,6	237660
Soliq maslahatchisi konsalting firmalari	19170,5	35139,8	39520,0	78794,6	89879,0	10685,0	22709,1	16079,4	33582,3	64719,6
Auditorlik firmalari	113145,3	107355,6	155219,0	293717,3	369596,9	57352,3	68651,0	77246,8	199067,8	281815


2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi-ki, 2018-yilda buxgalteriya outsorsing firmalari soniga nisbatan ulardagi xodimlar soni o'rtacha 4,1 nafar bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 2,9 nafarni tashkil etgan. Agar aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya outsorsing xizmatlari ko'rsatilmasligini hisobga olsak, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar uchun buxgalteriya outsorsing xodimlarining umumiy miqdoriga nisbatan 2018-yilda 44,8 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'ri kelar ekan, ya'ni buxgalteriya outsorsing bitta xodimi uchun 44,8 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatga buxgalteriya outsorsing xizmatlarini ko'rsatishi kerak bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha 2022-yilda bitta buxgalteriya outsorsing xodimiga 70,3 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatga xizmat ko'rsatishi kelib chiqadi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 27-sentyabrdagi 01/3-01-19-642-sonli ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



3-rasm. Buxgalteriya outsorsing firmalari sonining o‘shish tendensiyasi⁹

3 va 4-rasmlardan bugungi kunda faoliyat yuritilayotgan buxgalteriya outsorsing firmalari soni bozor talabiga qarab ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ta’kidlash joizki, buxgalteriya outsorsing firmalari soni bugungi kunda 2018-yilga nisbatan 2 barobariga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ham bo‘lsa ushbu soha shiddat bilan rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.



4-rasm. Buxgalteriya outsorsing firmalarida faoliyat yurituvchi xodimlar sonining o‘shish tendensiyasi¹⁰

⁹ www.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 27-sentyabrdagi 01/3-01-19-642-sonli ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Shtatda ishlovchi buxgalter xarajatlari ham buxgalteriya outsorsing xizmatlar haqi ham korxonada xarajatlari tarkibida doimiy xarajatlar tarkibidadir. Lekin, ularning xizmat turlari va ularga to'lanadigan haq hajmlari turlicha bo'lishi mumkin. Shtatda ishlovchi buxgalter xodim uchun xarajatlar buxgalteriya hisobida 9420-“Ma'muriy xarajatlar”, buxgalteriya outsorsing xizmatlari haqlari 9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” tarkibida hisobga olib boriladi. To'g'ri ular bitta sintetik schyotda hisobga olinadi, ya'ni 9400-“Davr xarajatlari”da va ikkala xizmat haqlari ham doimiy xarajatlardir, lekin ularga to'lanadigan haqlarning hajmlari turlichadir.

Endi, shtatda ishlovchi buxgalterga ega bo'lish holatlaridagi mavjud muammolarga duch kelinsa, buxgalteriya outsorsingga o'tishi orqali ushbu muammolarni hal etishi mumkin, ular quyidagilardir:

1. Korxonada ichida buxgalterlik shtat birliglarini yaratish zarurati muammosi.

2. Shtatda ishlovchi buxgalter xodimlarni qidirishga ortiqcha vaqt sarflash va malakasiz mutaxassisni yollash xavfi muammosi.

3. Professionalizm va buxgalteriya xodimi tajribasidan foydalanish muammosi;

4. Buxgalterning malakasini doimiy ravishda oshirish muammosi.

5. Buxgalteriya xizmatlariga sarflanayotgan xarajatlarning barqaror emasligi muammosi.

6. Buxgalteriya outsorsing xizmatlaridan qisman foydalanish imkoniyatidan foydalanmaslik muammosi.

7. Inson omili va motivatsiyaning yetishmasligi muammosi.

8. Sanksiyalar paytida professional yordam olish muammosi.

Hozirgi vaqtda moliyaviy va boshqaruv hisobi o'rtasidagi munosabatlarning turli xil variantlari mavjud bo'lib, buxgalteriya hisobining moliyaviy va boshqaruv hisoblarga bo'linishi tartiblari quyidagichadir:

boshqaruv hisobi muomalalari tegishli sintetik schyotlar (asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish va shu kabilar) bo'yicha buxgalteriya hisobining umumiy tizimida aks ettiriladi;

moliyaviy hisob ma'lumotlari va boshqaruv hisobi o'rtasidagi farq analitik hisob darajasida amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy hisobda aks ettirilgan xarajatlar va daromadlar boshqaruv hisobining ehtiyojlariga muvofiq qayta guruhlanadi, natijada, xarajatlar bo'limida yoki boshqaruv uchun zarur bo'lgan boshqa tarkibiy bo'linmalar bo'yicha umumlashtirilgan batafsil ma'lumotlar shakllantiriladi.

Buxgalteriya outsorsing firmasi tomonidan yuritiladigan mijoz korxonaning moliyaviy hisobida xarajatlar va daromadlar, javobgarlik markazlari va boshqa tahlil markazlariga bo'linmasdan, xarajatlar elementlari shaklida butun korxonada bo'yicha hisobga olinadi. Sotishdan olingan moliyaviy natijalar, umumiy xarajatlar va umumiy daromadlarni solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Boshqaruv hisobi ushbu ma'lumotlardan umumlashtirilgan holda boshqaruv hisobidagi xarajatlar va foydalarning yakuniy moddalarini moliyaviy hisobning chiqish ko'rsatkichlari bilan taqqoslash yo'li bilan foydalaniladi.

Xarajatlar va daromadlarni hisobga olishda moliyaviy va boshqaruv hisobi yagona integratsiyalashgan hisob tizimidan foydalaniladi. Ma'lumki, sotishdan tushgan tushumdan xarajatlarni ayirish va unga boshqa daromadlar va xarajatlar summalaridagi farqni qo'shish orqali korxonada faoliyatining moliyaviy natijasi keltirib

chiqariladi. Ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini hisoblashda tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar balansidagi o'zgarishlar hisobga olinadi va yillik moliyaviy natijalarni aniqlash uchun moliyaviy hisobning barcha asosiy hisoblarini yopish, ular bo'yicha aylanma va yakuniy qoldiqni aniqlash talab etiladi.

Integratsiyalashgan tizim odatda maxsus boshqaruv hisoblaridan foydalanmasdan ishlaydi. Boshqaruv maqsadlarida ushbu moliyaviy ma'lumotlarni maxsus jamlovchi registrlarda guruhlanadi, barcha ma'lumotlar va hisob-kitob natijalari bilan to'ldiriladi.

Buxgalteriya outsorsing firmasi uchun integratsiyalashgan tizimni yanada takomillashtirish har bir xarajat elementi uchun maxsus boshqaruv hisobini ajratish bilan bog'liqdir.

Integratsiyalashgan buxgalteriya tizimining asosiy kamchiligi shunda-ki, ikkita parallel hisob tizimini yuritishda buxgalteriya bo'limiga yuklatiladigan ishlar hajmi ikki marta ortadi (bunda hisob ma'lumotlari ikki marta qayta ishlanishi kerak) va buxgalteriya hisobining qayta-qayta kiritilishi tufayli xavf ham ortishi muqarrar.

Mijoz korxonada buxgalteriya hisobini buxgalteriya outsorsing firmasi tomonidan yuritishda ushbu hisobvaraqlar rejasidagi 3300dan 3900gacha bo'lgan ochiq joylaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ularda material xarajatlar, mehnatga haq to'lash xarajatlari, ijtimoiy soliq to'lovlari, amortizatsiya xarajatlari va boshqa xarajatlar elementlari uchun, qolganlari esa, bo'limlar va umuman mijoz korxonada ishlab chiqarish faoliyati natijalarini, ishlab chiqarish va sotish hajmlarini hisobga olish uchun qo'llanilishi mumkin.

Buxgalteriya outsorsing firmasidagi integratsiyalashgan buxgalteriya tizimi xarajatlar elementlari bo'yicha moliyaviy hisob bo'yicha ma'lumotlarni yaratish va boshqaruv ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda guruhlangan boshqaruv hisobi uchun ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Bunda buxgalteriya outsorsing firmasi uchun xarajatlarni shakllantirish dolzarb hisoblanadi, ya'ni turli xil faoliyat turlari, obyektlar, mijozlar, xarajatlar markazlari, javbgarlik markazlari, shartnomalar va boshqalardir. Xarajatlarni shakllantirishga bunday yondashuv buxgalteriya outsorsing loyihalarining o'ziga xosligi bilan bog'liq, ko'p hollarda shuning uchun xarajatlarning obyektiv ko'rsatkichini shakllantirish zarurati mijoz korxonada uchun buxgalteriya outsorsing loyihalarini amalga oshirish hisoblanadi.

Mijoz korxonada moliyaviy va boshqaruv hisobining integratsiyalashgan tizimini tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- buxgalteriya hisobi obyektlarini tanlash;
- tuzilgan ishchi buxgalteriya hisobvaraqlari rejasiga birlashtirish;
- hisoblar tizimidan, subschyotlardan va sotishni hisobga olish uchun analitik hisoblardan foydalanish;
- xarajatlar va daromadlarni aniqlash;
- moliyaviy natijalarni nazorat qilish va tahlil qilishni tashkil etish va qarorlar qabul qilish.

Shunday qilib, bizning fikrimizga ko'ra, boshqaruv va moliyaviy hisobning integratsiyalashgan modeli quyidagi asosiy masalalarni o'z ichiga oladi:

- moliyaviy va boshqaruv hisobining integratsiyalashgan modelida 3300 dan 3900-schyotlargacha foydalanish;

- 3300-schyotdan foydalangan holda moliyaviy xarajatlar hisobini tashkil etish, ular bo'yicha xarajatlar hisobi elementlar bo'yicha amalga oshirish;

moliyaviy va boshqaruv hisobi tizimlari o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi schyotlar asosida hisoblash.

Buxgalteriya outsorsing firmasida turli xil buxgalteriya tizimlarini integratsiyalashuvi quyidagilarga imkon yaratadi:

moliyaviy va boshqaruv hisobi uchun mas'ul yagona tarkibiy bo'linmani tashkil etish;

turli buxgalteriya tizimlari ehtiyojlari uchun xo'jalik muomalalari bo'yicha ma'lumotlarning bir necha marta kiritilishini bartaraf etish;

turli buxgalteriya tizimlari tomonidan noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish va ma'lumotlarni bir necha marta qayta ishlash ehtimolini minimallashtirish orqali boshqaruv ma'lumotlarining yuqori darajadagi ishonchliligini ta'minlash;

integratsiyalashgan hisob tizimidan foydalanish orqali turli buxgalteriya hisobi tizimlaridan olingan ma'lumotlarning o'zaro solishtirish va shu orqali izchilligini ta'minlash;

har xil turdagi buxgalteriya hisobini parallel yuritishda ishtirok etuvchi xodimlar sonini optimallashtirish;

mijoz korxonada hujjat aylanishi va ish yuritishni optimallashtirish;

mijoz korxonani boshqarish tizimida axborot funksiyasi sifatini oshirish.

Zamonaviy iqtisodiyotda xarajatlarni hisoblashning turli usullari qo'llaniladi, ular "Standart kost", "Direkt kosting", "Abzorpshen kosting", "Target kosting", "Kayzen kosting", "Vareybl kosting" va "ABS" kabi jumlasidandir. Mijoz korxonada boshqaruv hisobini buxgalteriya outsorsing firmasi tomonidan yuritilishida 3300-3900 schyotlarni qo'llash orqali ishlab chiqarish tannarxini hisoblash va kalkulyatsiya qilish va ma'lumotlarni maxsus analitik schyotlarda olib borish asnosida ularni guruhlashtirish mumkin. Bunday yondashuv xarajatlarni hisoblashda ularning kelib chiqish joylari va vaqti, javobgarlik markazlariga taqsimlanishi hamda yuqorida keltirilgan usullarning qay birini tanlash foydali ekanligidan kelib chiqib amalga oshirish qaysi jarayon uchun qaysi usulni yaxlit qo'llash maqsadga muvofiqligidan kelib chiqish kerak.

Endi, buxgalteriya outsorsing firmasida mijoz korxonasining moliyaviy hisobini tashkil etilishi tartiblarini ko'rib chiqamiz. Buxgalteriya outsorsing firmasida mijoz korxonasi moliyaviy hisobini yuritishda ham 3300-3900 schyotlardan foydalanishga asoslanish maqsadga muvofiq bo'lib, ular faqat xarajat elementlari kontekstida analitik hisobni tashkil etish bilan tavsiflanadi.

Buxgalteriya outsorsing firmasida mijoz korxonasining moliyaviy hisob tizimining ishchi jadvali oddiy faoliyat uchun xarajatlarni elementlar bo'yicha aks ettirish uchun quyidagi birinchi darajali hisoblarni nazarda tutadi, 3300 - "Xomashyo va material xarajatlar", 3400 - "Mehnatga haq to'lash xarajatlari", 3500 - "Ijtimoiy soliq ajratmalari", 3600 - "Amortizatsiya ajratmalari", 3700 - "Jami xarajatlarni taqsimlanishi", 3800 - "Boshqa umumiy xarajatlar" va 3900-"Boshqa xarajatlar".

Mijoz korxonasi xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni elementlar bo'yicha ishlab chiqaradigan buxgalteriya hisobi tizimi xarajatlarning tuzilishi va asosligini baholashga imkon beradigan ma'lumotlarni batafsil bayon qilishi kerak. Buxgalteriya outsorsing firmasi uchun moddiy xarajatlar bo'yicha batafsil ma'lumotlar 5-jadvalda keltirilgan.

Buxgalteriya autsorsing firmasida moliyaviy hisob maqsadlarida qo‘llaniladigan schyotlar tasnifi¹¹

Sintetik schyot kodi va nomi	Analitik schyot kodi va nomi
3300- “Xomashyo va material xarajatlar”	3310-“Asosiy ishlab chiqarishga sarflangan xomashyo va material xarajatlar”
	3320-“Yordamchi ishlab chiqarishga sarflangan xomashyo va material xarajatlar”
	3330-“Umumishlab chiqarishga sarflangan xomashyo va material xarajatlar”
	3340-“Ma’muriy maqsadlarga sarflangan xomashyo va material xarajatlar”
	3390-“Boshqa xomashyo va material xarajatlar”
3400- “Mehnatga haq to‘lash xarajatlari”	3410-“Asosiy ishlab chiqarish ishchilarga mehnatga haq to‘lash xarajatlari”
	3420-“Yordamchi ishlab chiqarish ishchilarga mehnatga haq to‘lash xarajatlari”
	3430-“Umumishlab chiqarish ishchilarga mehnatga haq to‘lash xarajatlari”
	3440-“Ma’muriy xodimlarga mehnatga haq to‘lash xarajatlari”
	3490-“Mehnatga haq to‘lash xarajatlari bo‘yicha boshqa xarajatlar”
3500-“Ijtimoiy soliq ajratmalari”	3510-“Asosiy ishlab chiqarish ishchilarga ijtimoiy soliq ajratmalari”
	3520-“Yordamchi ishlab chiqarish ishchilarga ijtimoiy soliq ajratmalari”
